

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 16 - fevral

67-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-39-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida

Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, birinchi navbatda, mahallalarda kichik biznes va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, yoshlar va xotin-qizlarni daromadli mehnat bilan band qilish borasidagi tadbirlarni tizimli ravishda davom ettirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-39-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-yanvardagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-39-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun rahbarlikka olinsin.

2. 2023-yilda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun kamida 950 mlrd so'm yo'naltirilsin va ushbu resurslarning Nukus shahri va tumanlar kesimidagi maqsadli parametrlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki:

Nukus shahri va tumanlar hokimlari tijorat banklari bilan birgalikda dasturlar bo'yicha ajratilgan kreditlarning ularni so'ndirish grafigiga muvofiq belgilangan muddatlarda qaytarilishiga mas'ul hisoblanadi va har oy yakuni bilan muammoli kreditlarni undirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni muhokama qilib boradi;

hududlarda har oylik kreditlash hajmlari kreditlarni so'ndirish grafigining

bajarilmagan qismiga mos ravishda kamaytiriladi;

Nukus shaxri va tumanlarining birinchi o‘rinbosarlari tuman (shahar) oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari bilan birgalikda dasturlar ijrosini, shu jumladan ajratilgan kreditlar samaradorligini ta‘minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida har chorak yakuni bo‘yicha xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlarida hisobot berib borishi amaliyoti joriy etiladi.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga hududiy oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash markazlari bilan birgalikda - dasturlar doirasida hududlarga ajratilgan mablag‘larning yillik va oylik limitlarini tuman (shahar) va mahalla (ovul) kesimida taqsimlash, amalga oshirilayotgan loyihalarning istiqboli va qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga yo‘naltirilganligidan kelib chiqqan holda, mahallalar limitini har oyning o‘ninchi sanasiga qadar qayta ko‘rib chiqish vakolati berilsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining ayrim qaroriga 2- ilovaga muvofiq o‘zgartirish kiritilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining birinchi o‘rinbosari N.Erlepesov zimmasiga yuklansin.

**Qoraqalpog‘iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar
Kengashining
2023 yil 16 fevraldagi
67-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida
2023 yilda ajratiladigan kreditlar**

REJASI

mln.so'm

№	Shahar va tumanlar nomi	Jami ajratiladigan imtiyozli kredit	Shu jumladan		
			Avval berilgan kreditlarning so'ndirilishi hisobidan	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan	Vakolatli banklar resurslari hisobidan
Tumanlar kesimida					
Jami		950 000,0	457 362,1	342 000,0	150 637,9
1	Amudaryo tumani	96 543,8	44 545,2	36 516,9	15 481,7
2	Beruniy tumani	99 750,0	41 309,8	41 361,2	17 079,0
3	Bo'zatov tumani	10 450,0	4 386,1	4 313,9	1 750,0
4	Kegeyli tumani	37 406,3	16 917,7	14 482,3	6 006,3
5	Qonliko'l tumani	23 275,0	11 141,3	8 458,7	3 675,0
6	Qorao'zak tumani	22 957,1	11 641,7	7 715,4	3 600,0
7	Qo'ng'iro't tumani	74 337,5	37 493,0	25 107,0	11 737,5
8	Mo'ynoq tumani	20 425,0	10 186,6	7 013,4	3 225,0
9	Nukus tumani	30 728,9	15 442,8	10 467,3	4 818,8
10	Taxiatosh tumani	23 809,4	11 552,8	8 497,2	3 759,4
11	Taxtakopir tumani	30 934,4	14 376,8	11 573,2	4 984,4
12	To'rtko'l tumani	84 728,1	41 192,7	30 057,3	13 478,1
13	Xo'jayli tumani	67 721,1	35 595,9	21 531,4	10 593,8
14	Chimboy tumani	60 885,2	30 608,4	21 036,3	9 240,5
15	Sho'manoy tumani	21 909,4	11 364,6	7 085,4	3 459,4

16	Ellikqal'a tumani	89 151,6	42 524,1	32 865,7	13 761,8
17	Nukus shahri	154 987,5	77 082,6	53 917,4	23 987,5
Banklar kesimida					
Jami		950 000,0	457 362,1	342 000,0	150 637,9
1	Agro bank	366 059,0	174 329,4	131 491,6	60 238,0
2	Mikrokredit bank	201 663,6	92 484,9	79 016,8	30 162,0
3	Xalq bank	382 277,4	190 547,8	131 491,6	60 238,0

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023 yil 16 fevraldagi
67-13-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashining 2021-yil 1-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-martdagi «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-5041-son qarori ijrosini ta‘minlash haqida”gi 97-son qarorida:

4-bandining birinchi xatboshidagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari A.Sh.Shamuratov, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirining o‘rinbosari S.M.Eshanov, Markaziy bank Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bosh boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari A.A.Abdukarimov” so‘zlari “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining, Markaziy banki Qoraqalpog‘iston Respublikasi Bosh boshqarmasi boshlig‘ining hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining o‘rinbosarlari” so‘zlari bilan almashtirilsin.